UDK: 616-006.6

YO‘G‘ON ICHAK RAKI VA UNING OROLBO‘YI XUDUDIDA YASHOVCHI AXOLISI ORASIDA UCHRAYDIGAN MORFOLOGIK TURLARI

Xudaykulova Feruza Xojikulovna – katta o`qituvchi
Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiaili (Urganch, O‘zbekiston)
Yuldashev Baxrom Sobirjanevich - t.f.d., dotsent
Ma’mun universiteti (Xiva, O‘zbekiston)

Rezyume. *Maqolada Orolbo‘yi ekologik noqulay xududi xisoblangan Xorazm viloyati xududida yo‘g‘on ichak raki bilan kasallanib Respublika onkologiya ilmiy-amaliy markazi Xorazm filialida 2021-2023 yillarda davolanishda bo‘lgan bemorlar, ularning kasallanish tarixlari, ambulatlor kartalari o‘rganilib, yosh guruxlari, jinsi, yo‘g‘on ichak rakining eng ko‘p joylashgan soxasi, yuzaga keladigan patomorfologik o‘zgarishlar, ularning gistologik shakllari, eng ko‘p uchraydigan yondosh kasalliklari va asoratlari o‘rganilib, metastazlanish xususiyatlari taxlili o‘tkazildi.*

Kalit so‘zlar: *yo‘g‘on ichak raki, patomorfologik o‘zgarishlar, gistologik xarakteristika, metastazlanish, yondosh kasalliklari, asoratlari.*

РАК ТОЛСТОЙ КИШКИ И ЕГО МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ТИПЫ У НАСЕЛЕНИЯ, ПРОЖИВАЮЩЕГО В ПРИАРАЛЬЕ

Худайкулова Феруза Хожикуловна - старший преподаватель
Ургенчский филиал Ташкентской Медицинской академии (Ургенч, Узбекистан)
Юлдашев Бахром Собиржаневич – д.м.н., доцент
Университет Мамуна (Хива, Узбекистан)

Резюме. *В статье приводятся данные больных раком толстого кишечника, проживающих в экологически неблагоприятных условиях Хорезмской области и находившихся на лечении в 2021-2023 годах в Хорезмском филиале Республиканского научно-практического центра онкологии. Были изучены истории заболевания, амбулаторные карты, возрастные категории, пол, патоморфологические изменения и проведены гистологические исследования различных вариантов рака толстого кишечника, проанализированы случаи метастазирования и осложнения болезни.*

Ключевые слова*: рак толстого кишечника, гистологическая характеристика, метастазирования,сопутствующие заболевания, осложнения.*

COLON CANCER AND ITS MORPHOLOGICAL TYPES AMONG THE POPULATION LIVING IN THE ARAL SEA REGION

Khudaykulova Feruza Xojikulovna - senior teacher
Urgench branch of the Tashkent Medical Academy (Urgench, Uzbekistan)
Yuldashev Bakhrom Sobirjonevich - D.M.Sc., associate professor
Mamun University (Khiva, Uzbekistan)

Summary. *The article provides data from patientswith colon cancer living in environmentally unfavorable conditions of the Khorezm region and who were treated in 2021-2023 at the Khorezm branch of the Republican Scientific and Practical Oncology Center. The history of the disease, outpatient records, age categories and gender, pathomorphological changes and histological studies of various types of colon cancer were studied, cases of metastasis and complications of the diseases were analized.*

Key words: *colon cancer, macroscopic, microscopic changes, pathomorphological changes, metastasis, histological characteristics, complications, diseases*

Mavzuning dolzarbligi. Yo‘g‘on ichak rakidan yuqori o‘lim darajasi va u bilan bog‘liq tibbiy va ijtimoiy muammolar kasallikni turli jihatlarini, shu jumladan mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda yo‘g‘on ichak raki butun dunyo bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan o‘sma kasalliklaridan biri bo‘lib, uning uchrashi yosh oshishi bilan, ayniqsa 50 yoshdan keyin sezilarli ko‘payadi. Yo‘g‘on ichak rakining asosiy xavf omillaridan bo‘lib, bemor yoshi (ayniqsa 50 yoshdan keyin), noto‘g‘ri ovqatlanish (sabzavotlarni kam iste’mol qilish), oilada yo‘g‘on ichak raki xolatlari bo‘lganligi, rak oldi kasalliklari (yo‘g‘on ichak polipozi, adenomalari, nospetsifik yarali kolit, Kron kasalligi) jarayon rivojlanish xavfini oshiradi. Nospetsifik yarali kolitdagi surunkali yallig‘lanish ta’sirida to‘qimalarning doimiy yangilanishi xujayralarda mutatsiyalar va o‘zgarishlarning paydo bo‘lish extimolini oshiradi, bu esa o‘z navbatida yo‘g‘on ichak raki rivojlanishiga olib keladi.

Kasallik rivojlanishida ovqatlanish ratsioni, semizlik va yashash tarzdagi faktorlarning ta'siri axamiyatli bo'lib, shu bilan bir vaktda nisbatan rivojlangan mamlakatlarda ushbu kasallikdan o'lim xolatlarining kamayishi ularda rakni davolashning ilg'or tajribalarini joriy qilish orqali omon qolish yaxshilanganligini aks ettiradi.

Navruzov S. N., Alieva D. A., Kulmiev E. E.(2020) lar kabi o'zbekistonlik olimlar tomonidan GLOBOCAN ma'lumotlari asosida KRR bo'yicha dunyodagi va Respublikadagi axvol taxlil qilingan va O'zbekistonda kolorektal rakning onkoepidemiologik tekshiruvlarini o'tkazish zarurligi asoslangan. Kolorektal rakdan kasallanishning va undan o'lim xolatlarining global tendensiyalari geografik xududlar, iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Jins bo'yicha farqlar borligi ko'rsatilgan: kolorektalrak ko'proq erkaklarda uchraydi, kasallangan erkaklar va ayollarning nisbati 1,25:1,0 ni tashkil kiladi. O'lganlar soni xam o'sib bormoqda, ular orasida erkaklar va ayollarning nisbati - 1,22:1,0 ni tashkil kiladi. Yo'g'on ichak raki bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi axvol o'rganilishi shuni ko'rsatdi - ki, yo'g'on ichak raki bilan kasallanish tendensiyalari ko'payishga moyil, bu xolat kolorektal rak paydo bo'lish xavf omillarini aniqlash va territorial farqlarni o'rganish borasidagi izlanishlarni davom qildirish zaruriyatini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak ekologik noqulay Orolbo'yi xududi Xorazm viloyati axolisi orasida yo'g'on ichak rakining rivojlanish omillari, maxalliy ovkatlanish urf-odatlarga, bemor yoshiga va jinsiga bogliqligini o'rganish qiziqish tug'diradi.

Ilmiy ishning maqsadi. Xorazm viloyati axolisi orasida yo'g'on ichak rakining morfologik xarakteristikasini mazkur xududning o'ziga xos xususiyati va uning kasallik rivojlanishiga ta'sirini xisobga olgan xolda batafsil o'rganish.

Material va usullar.O'zbekiston respublikasi onkologiya ilmiy - amaliy markazi Xorazm filialida 2021-2024 yillarda davolanishda bo'lgan yo'g'on ichak raki diagnozi bilan davolangan 217 nafar bemorning kasallik tarixlari, ambulator kartalari, nam arxivlaridan tayyorlangan gistologik preparatlar, ularning tekshiruvlari natijalari, o'smalarning yo'g'on ichakdagi lokalizatsiyasi, patomorfologik o'zgarishlar, ularning gistologik shakllari, eng ko'p uchraydigan yondosh kasalliklari va asoratlari o'rganilib, metastazlanish xususiyatlari taxlili o'tkazildi.


Olingan natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki o'smalarning yosh guruxlari bo'yicha uchrashi 217 ta xolatning 10 tasida (4,6 %) 18-34 yosh, 26 ta xolatda (12 %) 35-44 yosh, 45 ta xolatda (20,7 %) 45-54 yosh, eng ko'p xolat 73 nafar bemor (33,6 %) 55-64 yosh, 54 ta xolatda (25 %) 65-74 yosh, 9 ta xolatda (4,2 %) 75-90 yosh xolatda qayd qilindi; bemorlarning jinsi 123 xolatda (56,7%) erkak, 94 xolatda (43,3 %) ayollar ekanligi o'rganildi.

O'smalarning yo'g'on ichakdagi lokalizatsiyasi 217 ta xolatning eng ko'p joylashuv to'g'ri ichakga to'g'ri kelib 120 ta xolatda qayd qilindi, bu barcha o'smalarning 55,3 % ni tashkil qiladi, sigmasimon ichakda uchrashi 17 ta xolatda (7,8 %), rektosigmoidal soxa 25 (11,5%) xolatda, ko'r ichakda uchrash 15 ta xolatda (6,9 %), anal qismida 8 xolatda (4,3%), yo'g'on ichak jigar burchagi 7 xolatda (3,2%), yo'g'on ichak taloq burchagi 5 xolatda (2,3 %), ko'tariluvchi chambar ichakda 12 xolat (5,5%), tushuvchi chambar ichakda 7 xolat (3,2%), qayd qilindi.

Jadval 1.

Yo'g'on ichak rakining lokalizatsiyasi

O'smalar lokalizatsiyasi	soni	%
to'g'ri ichak	120	55,3
rektosigmoidal soxa	25	11,5
sigmasimon ichak	17	7,8
ko'r ichak	15	6,9
ko'tariluvchi chambar ichak	12	5,5
anal qismi	9	4,3
tushuvchi chambar ichak	7	3,2
yo'g'on ichak jigar burchagi	7	3,2
yo'g'on ichak taloq burchagi	5	2,3




Yo‘g‘on ichakdagi raklarning patomorfologik tekshiruvlar natijasida aniqlangan gistologik shakllari ichida eng ko‘p uchragani adenokarsinoma bo‘lib, 81 ta xolatda uning G 2 turi (37,3%), 43 xolatda G 1 turi (19,8 %), 29 xolatda G 3 turi (13,4%) kuzatildi va jami 153 xolat 70,5% ni tashkil qildi; 13 xolatda past differensiallashgan karsinoma (6%), 14 tasi yassi xujayrali karsinoma (6,4 %), 7 tasi yuqori differensiallashgan karsinoma (3,2%) , mutsinoz adenokarsinoma 4 ta xolatda kuzatilib 1,8 % ni tashkil qildi, limfoma 3 ta xolatda kuzatilib 1,4 % ni tashkil qildi , neyroendokrin o‘sma 2 xolatda kuzatildi (0,9%), uzuk xujayrali va differensiallashmagan karsinoma esa 1 tadan xolatda qayd qilindi va 0,46 % dan tashkil qildi.

Jadval 2.

Yo‘g‘on ichak rakining gistologik turlari

Gistologik turlar	Soni	Foizi
Adenokarsinoma	153 xolat	70,5%
1. G 1 2. G 2 3. G 3	43 81 29	19,8 % 37,3 % 13,4 %
past differensiallashgan karsinoma	13	6 %
yassi xujayrali karsinoma	14	6,4 %
yuqori differensiallashgan karsinoma	7	3,2%
mutsinoz adenokarsinoma	4	1,8 %
neyroendokrin o‘sma	2	0,9 %
differensiallashmagan karsinoma	1	0,46 %
uzuk xujayrali karsinoma	1	0,46 %



Yo‘g‘on ichak rakining boshqa a’zolarga metastazlanish xolatlari taxlil qilinganda uning bir qator ichki a’zolarga metastazlanib , ularda o‘sma o‘choqlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgani va buning natijasidagi a’zolar funksional etishmovchiligi butun organizm faolitiga ta’sir qilishi va poliorgan etishmovchilikka sabab bo‘la olgani aniqlandi. A’zolarga berilgan metastazlar orasida eng oldingi o‘rinda jigarga metastazlar bo‘lib, 24 xolatda kuzatilib, 11% ni tashkil qilgan, limfa tugunlari joylashib ulardagi metastazlar 18 ta xolatda kuzatilib 17,5% ni tashkil qilgan. Jigardagi metastazlar jigar to‘qimasi distrofik jarayonlari, venoz to‘laqonlik bilan bog‘liq asoratlarni shakllantirib funksional etishmovchilikka (buni ALT, AST miqdorining ortishida xam kuzatish mumkin) sabab bo‘lgan. Metastazlanishning keyingi o‘rinlarida o‘pkaga 8 xolatda kuzatilib, 3,7% ni, qorin pardasiga 7 xolatda (3,2%) kuzatilgan. Limfatugunlarga metastazlanish 8 xolatda kuzatilib, 3,7% ni tashkil qilgan; bu limfa tugunlar asosan kichik chanoq, qorin bo‘shlig‘i, pararektal soxa limfa tugunlari ekanligi aniqlandi.Ko‘rsatilgan limfa tugunlarining shikastlanishi shundog‘am immun tizim past bo‘lgan bemorlarda ikkilamchi immundefitsit xolatining kuchayigshiga olib kelishi kuzatiladi. Ichak tutqichiga 6 xolatda (2,8%) kuzatilib, ichak tutilishiga sabab bo‘lgan. Tuxumdonga 5 xolatda (2,3%), siydik pufagiga 3 xolatda (1,4%) kuzatilgan. O‘mrov suyagiga 4


xolatda kuzatilgan va 2% ni tashkil qilgan; suyaklardagi metastazlar ularda osteoporoz xolatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Qin va bachadonga, oshqozon osti beziga, taloqga metastazlar 2 tadan xolatlarda kuzatilgan va mos ravishda 0,9% ni tashkil qilgan; bosh miya va buyrak usti beziga yakka xollarda uchragan. Bu metastazlar shu a’zolar bilan bog‘liq tarzdagi turli funksional buzilishlarga olib kelgan va bu tabiiy xolda jarayonnng yanada og‘irlashib, bemorlarning xayot tarzi sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Jadval 3.

Metastazlanish xolatlari

Metastazlar paydo bo‘lgan ichki a’zolar	Soni	Foizi
Jigar	24	11%
O‘pka	8	3,7%
Turli regionar l.t	8	3,7%
Qorin pardasi	7	3,2%
Ichak tutqichi	6	2,8%
Tuxumdon	5	2,3%
O‘mrov suyagi	4	2%
Siydik pufagi	3	1,4%
Qin va bachadon	2	0,9%
oshqozon osti bezi	2	0,9%
taloq	2	0,9%
bosh miya	1	0,46%
buyrak usti bezi	1	0,46%
Jami bemorlar 217	Metastazlangan 73	33,74%




Yo‘g‘on ichak raki bilan og‘rigan bemorlarning kasallik birinchi marta aniqlanganidan keyingi davrlari taxlil qilinib, eng ko‘p uchraydigan asoratlar o‘rganildi. Bemorlar qanchalik kech murojaat qilgan bo‘lsalar, kasallikning asoratlari shunchalik ko‘p uchragan va bir bemorda bittadan ortiq asoratlar kuzatilgan. Asoratlar ichida birinchi o‘rinda ichakdan qon ketishi 73 bemorda kuzatilib, barcha bemorlarning 33,6% ni tashkil qilgan. Ikkinchi o‘rinda og‘riq sindromi 67 xolatda kuzatilgan va 31 % ni tashkil qilgan. Keyingi o‘rinlarda qisman ichak tutilishi 55 xolatda (25,3%), ikkilamchi kamqonlik 49 xolatda (22,6%) kuzatilgan. Bu asoratlar bemorlarda aksariyat xolatda jarroxlik amaliyoti qo‘llanilishi bilan bartaraf qilingan. Keyingi o‘rinlarda gidronefroz, anal kanali stenozi, assit 4 tadan xolatlarda kuzatilib, mos ravishda 5% dan bo‘lgan. Plevrit, peritonit, kaxeksiya, to‘g‘ri ichak oqmasi, pararektal abssess, bitishmalar yakka xolatlarda uchragan va xar qaysi 0,46 % ni tashkil qilgan.

Jadval 4.

Asoratlar

Asoratlar	Nafar	Foizi
ichakdan qon ketishi	73	33,6%
og‘riq sindromi	67	31 %
qisman ichak tutilishi	55	25,3%
ikkilamchi kamqonlik	49	22,6%
gidronefroz	4	5%
assit	4	5%
anal kanali stenozi	4	5%
plevrit	1	0,46 %
peritonit	1	0,46 %
kaxeksiya	1	0,46 %
to‘g‘ri ichak oqmasi	1	0,46 %
pararektal abssess	1	0,46 %
bitishmalar	1	0,46 %



Xulosa. o‘rnida shuni aytish mumkinki yo‘g‘on ichak raklari eng ko‘p 55- 64 yosh kategoriyasida, erkaklarda ayollarga nisbatan ko‘p uchraydi, kalorektal rakning lokalizatsiyalanishi ko‘pincha to‘g‘ri ichakda kuzatiladi va ko‘proq 3 sm dan 13sm gacha qismi jarayonga tortiladi, kasallikning gistologik shakllaridan adenokarsinoma G2 ko‘p rivojlanadi, kasallik o‘z vaqtida aniqlanmasa qisqa muddatlar ichida asoratlar va metastazlar yuzaga kelishi, ular bilan bog‘liq asoratlarning rivojlanib bemorlarning xayot tarzining og‘irlashishiga olib kelishi, bemorlarning davolanish jarayoni cho‘zilishi, yashash muddatlarining qisqarishi, o‘lim xolatlarining tezlashishi kuzatiladi.

Bu xolatlarning oldini olish uchun xududlarda rak oldi kasalliklari (yo‘g‘on ichak polipozi, adenomalari, nospetsifik yarali kolit, Kron kasalligi) bo‘lgan bemorlarni dispanser xisobga olib, doimiy tarzda ko‘riklar o‘tkazib onkologik extiyotkorlikni kuchaytirish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Aliev F. SH. va boshы. Kolorektal rak epidemiologiyasi: jaxon va regional tendensiyalar //Ural tibbiyot fan va ta’limi – 2016. – T. 17. – №. 4. – S. 125-128.

2. Artyuxov S. V. Asoratlangan yo‘g‘on ichak chap qismi rakining epidemiologiyasi // III- Peterburg xalqaro onkologlar forumining ilmiy ishlar to‘plami " Oq tunlar 2017". – 2017. – B. 33a-33.

3. Leyfer O. V. va boshq. Yo‘g‘on ichak raki: Novgorod viloyati misolida onkogenez va epidemiologiya masalalari //YAroslav Mudrыy nomidagi Novgorod universiteti Axborotnomasi – 2021. – №. 3 (124). – B. 103-106.

4. Navruzov S. N., Alieva D. A., Kulmiev E. E. Kolorektal rak epidemiologiyasi: dunyodagi tendensiyalar, O‘zbekiston Respublikasida yo‘g‘on ichak raki bilan kasallanish (2012-2017 gg.) //Tos jarroxligi va onkologiya. – 2020. – T. 10. – №. 1. – B. 56-63.

5. Chen J, Zhou H, Jin H, Liu K. A nomogram for individually predicting the overall survival in colonic adenocarcinoma patients presenting with perineural invasion: a population study based on SEER database. //Front Oncol. 2023 May 19;13:1152931.